



Zulxumor TOJIYEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti professori, g.f.d
E-mail: z_tadjieva@mail.ru
Maftuna USMONOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: maftunausmonova221@gmail.com

Samarqand davlat pedagogika instituti geografiya kafedrasida dotsenti, Phd O.I.Sherxolov taqrizi asosida

THE TERRITORIAL DISTRIBUTION OF THE URBAN POPULATION OF THE BUKHARA REGION

Annotation

This article analyzes the territorial distribution of the urban population across the districts of the Bukhara region and examines the factors influencing this distribution, which allows for an assessment of the current state of urbanization in the region. The region's territory has historically developed around irrigated lands, trade routes, and centers of economic activity, which played an important role in the emergence and development of cities.

Currently, the territorial location of the urban population is largely determined by natural resources, transport networks, and economic potential. Specifically, the region's location in a desert zone contributes to challenges related to water resources. Consequently, all types of settlements, including cities, tend to develop primarily in areas with relatively higher water availability.

Keywords: Urbanization, city, natural conditions settlements, sustainable development.

ТЕРРИТОРИАЛЬНОЕ РАЗМЕЩЕНИЕ ГОРОДСКОГО НАСЕЛЕНИЯ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

В данной статье анализируется территориальное распределение численности городского населения по районам Бухарской области, а также факторы, влияющие на данное размещение, что позволяет оценить текущее состояние процессов урбанизации в регионе. Исторически территория области формировалась вокруг орошаемых земель, торговых путей и центров хозяйственной деятельности, что сыграло важную роль в возникновении и развитии городов.

В настоящее время территориальное размещение городского населения во многом определяется природными ресурсами, транспортными сетями и экономическим потенциалом. В частности, расположение региона в зоне пустынь обуславливает возникновение проблем, связанных с водными ресурсами. В результате любые населённые пункты, включая города, формируются преимущественно в районах с более высоким уровнем обеспеченности водными ресурсами.

Ключевые слова: Урбанизация, город, природные условия, населённые пункты, устойчивое развитие.

BUXORO VILOYATI SHAHAR AHOLISINING HUDUDIY JOYLASHUVI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Buxoro viloyatida shahar aholi sonining hududlar kesimida joylashuvi va bu joylashuvga ta'sir ko'rsatgan omillar tahlil qilingan bo'lib, bu viloyatda urbanizatsiyalashuv jarayonining qay holatda kechayotganligini kuzatish imkonini beradi. Viloyat hududi tarixan sug'oriladigan yerlar, savdo yo'llari va xo'jalik faoliyati markazlari atrofida shakllangan bo'lib, ushbu omillar shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Bugungi kunda ham shahar aholisining hududiy joylanishi ko'p jihatdan tabiiy resurslar, transport tarmoqlari va iqtisodiy salohiyat bilan bog'liq holda namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa viloyat hududi cho'l zonasida joylashganligi hududda suv resurslari muammosining vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Natijada har qanday aholi manzilgohlari, jumladan shaharlar ham asosan suv resurslari bilan ta'minlanish darajasi yuqori bo'lgan hududlarda shakllanadi.

Kalit so'zlar: Urbanizatsiya, shahar, tabiiy sharoit, aholi punktlari, barqaror rivojlanish.

Kirish. Bugungi kunda jahon aholisi soning yuqori suratlarda o'sib borishi, global miqyosda ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur muammolarni kompleks tarzda bartaraf etish va barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan Barqaror rivojlanish maqsadlari ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu global dastur 17 ta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi. Mazkur maqsadlarning barchasi bevosita yoki bilvosita aholi turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy tenglikni ta'minlash, iqtisodiy farovonlikni oshirish hamda ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan bo'lib, barchasining zamirida aholi uchun qulay makon yaratish maqsad qilib belgilangan deyish mumkin. Ushbu maqsadlar orasida 11-maqsad - "Shaharlar va aholi punktlarini inklyuziv, xavfsiz, chidamli va barqaror qilish" [1] alohida ahamiyat kasb etadi.

Shahar aholisining hududiy joylanishini o'rganishda Buxoro viloyatining tabiiy-geografik sharoiti alohida ahamiyat kasb etadi. Hududning katta qismi cho'l va yarim cho'l zonalarida joylashganligi aholi joylashuvining notekisligini keltirib chiqaradi. Aholining asosiy qismi suv resurslari mavjud bo'lgan, sug'oriladigan yerlar va transport yo'laklari yaqinida joylashgan shahar va aholi punktlarida to'plangan. Bu esa shahar aholisining hududiy joylanishida tabiiy omillarning hal qiluvchi rolini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tarixiy omillar ham shaharlarning hozirgi joylashuvi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Ayniqsa qadimiy shaharlardan bo'lgan Buxoro shahri tarixiy turizm markazi sifatida butun dunyoga mashhur hisoblanadi. Buxoro shahri aholisining joylanishida bevosita uning tarixiyligi muhim ahamiyat kasb etgan.

Maqolada Buxoro viloyatidagi shaharlar aholisining joylanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tizimli ravishda guruhlangan. Tabiiy omillar qatoriga suv, yer fondi, iqlim singari omillar kiriritilgan bo'lsa, ijtimoiy omillar aholi bandligi, yashash sharoitlari va ijtimoiy xizmatlarning shakllanish darajasi kabilan bog'liq. Iqtisodiy omillar shaharlarining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish salohiyati, investitsiya jalb etish imkoniyatlari bilan izohlanadi. Siyosiy omillar esa hududiy rivojlanish dasturlari, shaharsozlik siyosati va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar orqali namoyon bo'ladi. Ushbu omillarning o'zaro ta'siri Buxoro viloyati shaharlarida aholi sonining o'sishi va hududiy joylanish xususiyatlarini belgilab beradi.

Respublikamizda aholi punktlari tizimini takomillashtirish hamda aholining hududiy joylashuvini optimallashtirish masalalari so'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4702-son qarori hududlar kesimida aholi manzilgohlari, xususan shahar infratuzilmalarini rivojlantirish imkonini berdi.

Adabiyotlar sharhi. Bugungi kunda shaharlar geografiyasini o'rganish jahonning ko'plab rivojlangan mamlakatlari uchun dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Negaki shaharlar aholi yashash punktlarining katta qismini egallashi bilan birga asosiy ishlab chiqarish va iste'mol markazi ham hisoblanadi.

Shahar aholisining hududiy joylashuvi bilan bog'liq tadqiqotlar demografik va urbanistik yo'nalishda tadqiqot olib borayotgan ko'plab olimlarni qiziqtirgan deyish mumkin. Jahon miqyosida urbanizatsiyaning aholi soni va o'sishiga ta'siri haqida J.Barkley, R.Tomlinson, G.Spencer kabi tadqiqotchilarning ishlari alohida ahamiyatga ega. Jumladan, J.Barkley aholi sonining o'zgarishini keng ma'noda talqin qilib, aholi sonining ko'payishi ham, kamayishi ham "aholining o'sishi" tushunchasi doirasida baholalanishi lozimligini ta'kidlaydi. T.R.Malthus aholi o'sishi nazariyasiga asos solib, aholi sonining geometrik progressiya asosida o'sishi va resurslarning cheklanganligi o'rtasidagi nomutanosiblikni ilmiy jihatdan asoslab bergan. Shuningdek shaharlardagi yuqori demografik sig'im qanday ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga sabab bo'lishi haqida ta'kidlab o'tgan.

MDH mamlakatlarida aholi joylashuvi bo'yicha fundamental tadqiqotlar B.S.Urnlis tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, uning ilmiy ishlari sobiq ittifoq hududida demografik-geografik tadqiqotlarning rivojlanishida muhim rol o'ynagan.

O'zbekistonda aholi soni, demografik jarayonlar va turli yo'nalishdagi demografik tadqiqotlar A.S.Soliyev, M.R.Bo'riyeva, Z.N.Tojiyeva. aholining hududiy joylashuvi va aholi punktlari tizimining shakllanish jarayonlari, urbanizatiya bilan bog'liq tadqiqotlar O.B.Ata-Mirzayev, T.Raimov, A.S.Soliyev, E.A.Ahmedov, A.A.Qayumov, Z.T.Abdalova, S.Tashtayeva, M.M.Egamberdiyeva, A.Mavlonov va boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu shahar aholisining hududiy joylashuvi bilan bog'liq masalalar bevosita statistika bilan bog'liq ma'lumotlarga tayangan. Tadqiqotda statistik tahlil, matematik modellashtirish, ekstrapolyatsiya, tarixiy va geografik taqqoslash singari metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Buxoro viloyati O'zbekiston Respublikasining janubi-g'arbiy qismida, Zarafshon daryosining quyi oqimi hududida joylashgan bo'lib, uning hududining asosiy qismi Qizilqum cho'li bilan qoplangan. Viloyat geografik joylashuvi tabiiy-iqlim sharoitlari, suv resurslari va cho'l landshaftlarining ustunligi bilan tavsiflanadi. Aynan ushbu omillar tarixiy davrlardan boshlab aholi joylashuvi, shaharlar shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Buxoro viloyati qadimdan aholi yashash va xo'jalik faoliyati olib borish uchun qulay hududlardan biri hisoblangan. Zarafshon vohasi sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi, savdo-sotiq va hunarmandchilik markazlarining shakllanishi uchun muhim makon bo'lib xizmat qilgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, mazkur hudud Buyuk Ipak yo'lining muhim tarmoqlari kesishgan hududlardan biri bo'lganligi sababli, shaharlar va aholi punktlarining zich joylashuvi bilan ajralib turgan.

Buxoro viloyati hududida 2700 yildan ortiq tarixga ega bo'lgan qadimiy shaharlar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari hozirgi kungacha saqlanib qolgan bo'lsa, ba'zilar tarixiy jarayonlar ta'sirida "o'lik shaharlar"ga aylangan. Jumladan, Poykend, Varaxsha va Qal'ai Vabarn kabi shaharlar qadimgi karvon yo'llari bo'yida joylashgan bo'lib, o'z davrida yirik savdo, hunarmandchilik va ma'muriy markazlar hisoblangan. Ushbu shaharlarning rivoji, avvalo, savdo yo'llari, suv ta'minoti va strategik joylashuv bilan bog'liq bo'lgan.

Keyinchalik iqlimiy o'zgarishlar, suv resurslarining kamayishi, savdo yo'llarining yo'nalishi o'zgarishi hamda siyosiy beqarorlik kabi omillar mazkur shaharlarning tanazzulga yuz tutishiga sabab bo'lgan. Bu holat Buxoro viloyati hududida aholi joylashuvining tarixiy jihatdan o'zgaruvchanligini ko'rsatib, shaharlar rivojlanishida tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o'zaro bog'liqligini yaqqol namoyon etadi.

Umuman olganda, Buxoro viloyatining geografik joylashuvi, tabiiy sharoitlari va boy tarixiy merosi hududda aholi punktlari tizimining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynagan bo'lib, ushbu omillarni o'rganish shahar aholisining o'sishi va joylashuvi jarayonlarini ilmiy asosda tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda viloyat hududida 11 ta shahar 68 ta shaharcha 1473-ta qishloq aholi punkti mavjud bo'lib, ularning har birida aholi soning o'sishi va joylashuvi turlicha deyish mumkin.

1-jadval

Buxoro viloyati aholi punktlarining o'zgarish dinamikasi

Ma'muiy-hududiy birliklar	2018 yil			2025 yil		
	Shahar	Shaharcha	Qishloq aholi punkti	Shahar	Shaharcha	Qishloq aholi punkti
Buxoro viloyati	11	69	1469	11	68	1473
Buxoro sh.	1		14	1		14
Kogon sh.	1			1		
<i>Tumanlar</i>						
Buxoro	1	6	162	1	6	162
Vobkent	1	3	186	1	3	186
G'ijduvon	1	14	252	1	13	252
Shofirkon	1	8	144	1	8	144
Rometan	2	3	131	2	3	153
Jondor		9	147		9	138
Qorako'l	1	12	136	1	12	91
Olot	1	8	62	1	8	62
Kogon		2	138		2	134

Peshko'		4	91		4	131
Qorovulbozor	1	0	6	1		6

Jadval O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomidan tuzildi

Buxoro viloyatida 2018–2025-yillar oralig'ida aholi punktlarining hududiy tuzilishida muayyan o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, viloyat miqyosida shaharlar soni barqaror saqlanib qolgan bo'lsa-da, shaharchalar sonida biroz kamayish tendensiyalari, qishloq aholi punktlari sonida esa o'sish kuzatiladi. Jumladan, qishloq aholi punktlari soni 2018-yildagi 1469 tadan 2025-yilda 1473 taga yetgan.

Hududlar kesimida tahlil shuni ko'rsatadiki, Romitan va Peshku tumanlarida qishloq aholi punktlari sonining sezilarli darajada oshishi qayd etilgan. Mazkur holat asosan yangi aholi punktlarining shakllanishi hamda mavjud qishloqlarning hududiy kengayishi bilan izohlanadi. Aksincha, Qorako'l tumanida qishloq aholi punktlari sonining kamayishi cho'l sharoitida joylashgan hududlarda demografik bosim va migratsion jarayonlar ta'siri bilan bog'liq. Shuningdek, shaharchalar sonidagi qisqarish ayrim aholi punktlarining ma'muriy maqomi qayta ko'rib chiqilganidan dalolat beradi. Umuman olganda, jadval ma'lumotlari Buxoro viloyatida urbanizatsiya jarayoni nisbatan barqaror kechayotganini, ammo qishloq aholi punktlarining hududiy qayta shakllanishi davom etayotganini ko'rsatadi.

Hududlar kesimida aholi sonining o'zgarish dinamikasini tahlil qiladigan bo'lsak aholi soni qishloq aholi punktlari ko'p bo'lgan tumanlarda yuqori suratlarda ko'payayotganligini ko'rishimiz mumkin.

2-jadval

Buxoro viloyatida urbanizatsiyaning yillar davomida o'zgarishi (2015-2025-yillar)

Ma'muriy-hududiy birliklar	Umumiy aholi soni (ming. kishi)			Shahar aholisi (ming. kishi)			Urbanizatsiya darajasi, %		
	2015	2020	2025	2015	2020	2025	2015	2020	2025
Buxoro viloyati	1785,4	1923,9	2077	678,4	709,5	765,8	37,9	36,9	36,9
Buxoro sh.	273,5	280,2	300,2	249,5	255,4	274,8	91,2	91,1	91,5
Kogon sh.	58,9	61,1	65,5	58,9	61,1	65,5	100	100	100
<i>Tumanlar</i>									
Buxoro	150,1	166,2	181,7	34,3	38	41,4	22,8	22,9	22,8
Vobkent	127,9	139,5	151,2	25,4	27,2	29,2	19,8	19,5	19,3
G'ijduvon	284,7	303,4	327,5	86	87,1	95,2	30,2	28,7	29
Shofirkon	163,4	176,9	188,4	38,6	40,8	43,3	23,6	23	23
Rometan	129,2	141,1	153,5	33	35,3	38,3	25,5	25	24,9
Jondor	158,5	174	188,8	30,8	33,5	36,3	19,4	19,2	19,2
Qorako'l	150,2	163,7	174,3	57,4	62,4	67	38,2	38,1	38,4
Olot	91,2	99	105,8	35,7	37,1	39,8	39,1	37,5	37,6
Kogon	69,4	78	86,3	4,7	5,6	6,5	6,8	7,2	7,5
Peshko'	111,6	122,5	133,5	14,4	15,6	16,9	12,9	12,7	12,7
Qorovulbozor	16,8	18,3	20,3	9,7	10,4	11,6	57,7	56,8	57,1

Jadval O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomidan tuzildi

2015-2025-yillar oralig'ida Buxoro viloyatida aholi soni ortib borayotgan bo'lsada, urbanizatsiya darajasida sezilarli o'zgarish kuzatilmaydi. Bu holat qishloq aholisi o'sish sur'ati shahar aholisi o'sish sur'atiga nisbatan yuqoriroq ekanligini anglatadi. Viloyat hududlari o'rtasida urbanizatsiya darajasi bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjud. Buxoro va Kogon shaharlari yuqori urbanizatsiyalashgan hududlar bo'lsa, aksariyat tumanlarda bu ko'rsatkich past darajada saqlanib qolmoqda. Bu esa hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, sanoatlashuv va infratuzilma bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Buxoro viloyatida urbanizatsiya jarayoni sekin, hududiy nomutanosib va asosan yirik shahar markazlari hisobiga shakllanayotgan jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xulosa. Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash mumkinki Buxoro viloyatining asosiy qismi cho'l zonasidan iborat bo'lsada viloyat shaharlarining shakllanishi bir necha yillik ta'rixiy davrlarni o'z ichiga oladi. Buxoro viloyati shaharlarida aholi sonining yildan-yilga ortib borayotgani kuzatiladi. Bu o'sish nafaqat tabiiy demografik ko'rsatkichlar, ya'ni tug'ilish va o'lim darajasi bilan bog'liq, balki shahar hududlarining aglomeratsiya jarayonlari bilan ham chambarchas bog'liq. Hududiy rivojlanish va urbanizatsiya jarayonlari natijasida kichik va o'rta shaharlarda yangi aholi punktlari, uy-joylar va infratuzilma obyektlari paydo bo'lmoqda, bu esa shaharlarning tabiiy-iqtisodiy hududini kengaytiradi.

ADABIYOTLAR

1. UN Sustainable Development Programme
2. Abdalova Z., Tojiyeva Z. Iqtisodiy geografiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisod va moliya, 2013. – 201 b.
3. Abbosov S.B. Qizilqum cho'li landshaftlari dinamikasi va ekologiyasi: monografiya. – Samarqand, SamDU nashriyoti, 2019. – 174 b.
4. Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана: история и современность. – Т.: Ижтимоий фикр, 2009. – 221 с.
5. Bo'riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – Toshkent: Tafakkur, 2011.
6. Malthus T.R. An Essay on the Principle of Population. – London: EleBook, 1998. – 139 p.
7. Mavlonov A.M. Cho'l sharoitida shaharlarning shakllanishi va rivojlanishi: monografiya. – Buxoro. Durdona, 2010. – 92 b.
8. Sergeeva A., Danshin A., Akbar I., Usmanov A., Ergashev A. Urbanization and spatial transformation of cities in the Bukhara region of Uzbekistan // Chinese Journal of Urban and Environmental Studies. – 2025. – Vol. 13, No. 3. – Article 2550017. – DOI: 10.1142/S2345748125500174
9. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M. Shaharlar geografiyasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2018. Universitet – 120 b.
10. Tojiyeva Z.N., Sherkolov O.I., Musayev B.M., Ibragimov I.Z. Navoiy viloyatida aholi o'sishi va joylashuvining geografik muammolari. – Samarqand: Access Service, 2024. – 92 b.
11. Tojiyeva Z.N., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M., Abdalova Z.T., Yanchuk S.L. Demographic transition and the role of urban population in Uzbekistan // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Vol. 24, No. 4. – P. 2055–2064. – DOI:10.37200/IJPR/V24I4/PR201315
12. Tojiyeva Z.N. Aholi geografiyasi: darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 247 b.
13. Pardayev N.S., Tojiyeva Z.N., Antipova Y.A., Ruzmanova D.B., Sherholov O.I. Factors influencing employment and its regional features in southern Uzbekistan // Proceedings of the International Conference InterCarto. InterGIS: GIS for Sustainable Development. – 2025. – Vol. 31. – P. 706–724. – DOI: 10.35595/2414-9179-2025-1-31-706-724